

# Qishloq xo'jaligini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash to'g'risida brifing o'tkazildi

// 24.06.2022

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/qishloq-xujaligini-mineral-ugitlar-bilan-taminlash-brifing>

AOKAda o'tkazilgan brifingda quyidagilar ma'lum qilindi. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining talabiga muvofiq 2022-yil g'alla va paxta hosili uchun sof holda 555,9 ming tonna, ya'ni g'alla hosili uchun 272 ming tn va paxta hosili uchun 283,9 ming tn azotli o'g'itlar, 96,1 ming tn fosforli va 50 ming tn kaliyli o'g'itlar birja savdolari orqali xarid qilinishi belgilangan.

Joriy yilning 23-iyun holatiga respublika iste'molchilariga jami (sof holda) 653,3 ming tn mineral o'g'itlar birja savdolari orqali yetkazib berildi. Jumladan, 528,2 ming tn azotli, 82 ming tn fosforli va 43,1 ming tn kaliyli o'g'itlar.

Xususan, g'alla hosili uchun ajratilgan 272 ming tn azotli o'g'itlar joriy yilning aprel oyiga qadar to'liq yetkazib berildi.

O'tgan 2021-yilga nisbatan taqqoslaydigan bo'lsak joriy yil g'alla hosili uchun sof holda 10,0 ming tn ko'p azotli o'g'itlar 20 kun oldinroq yetkazib berildi.

Hozirda paxta hosli uchun birja savdolari orqali sof holda 256,2 ming tn (90%) azotli o'g'itlar yetkazib berildi va oziqlantirish ishlari davom etmoqda. Joriy yilning 30-iyunigacha paxta hosili uchun ajratilgan azotli o'g'itlar to'liq yetkazib beriladi.

Ma'lumot o'rnida shuni ta'kidlab o'tish zarur, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-fevraldagi PQ-3574 sonli qarori bilan qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini keng joriy etish hamda qishloq xo'jaligida moliyalashtirish va o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini tubdan takomillashtirish, shu asosda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va ularga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilash, rentabelligini oshirish maqsadida 2018-yilning 1-martidan boshlab, qishloq xo'jaligiga mineral o'g'itlarni bozor munosabatlari asosida faqat birja savdolari orqali sotish mexanizmi joriy qilingan.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida joriy yilda fermerlarga mineral o'g'itlar uchun xarajatlarni 100 foiz qoplaydigan miqdorda imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi.

Natijada kimyo korxonalarini tomonidan yetkazib berilayotgan mineral o'g'itlar uchun oldindan 100% to'lovlarni ta'minlab debitor va kreditor qarzdorliklarning o'sib ketishi oldi olindi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarida mineral o'g'itni tanlash, istalgan o'g'itni istalgan kimyo korxonasidan xarid qilish va mineral o'g'itlarni vositachilik ustamalarisiz kimyo korxonalaridan xarid qilishning imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Joriy yilda Yevropa mamlakatlarida tabiiy gaz bilan bog'liq mavjud muammolar, xalqaro maydondagi vaziyat sababli jahonda mineral o'g'itlarning narxlari keskin ko'tarilib ketgan bir paytda hukumatimiz tomonidan respublika qishloq xo'jaligiga mineral o'g'itlarni maqbul narxlarda va o'z vaqtida yetkazib berish bo'yicha amaliy va tizimli choralar ko'rildi. Shu jumladan kimyo korxonalarini tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va hududlarda 61 ta mineral o'g'it saqlaydigan vakolatli omborlar tashkil qilinib, g'alla hosili uchun 300 ming tonna azotli o'g'itlar zaxira qilindi.

Natijada g'allani mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish ishlari o'z vaqtida, bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Bunda avvalo, klaster korxonalari tomonidan mineral o'g'itlar zaxirasini to'liq yaratilganligi hamda fermer xo'jaliklariga mineral o'g'itlarni o'z vaqtida uzluksiz yetkazib berishga alohida e'tibor qaratildi. Muhim agrotexnik tadbirlarning olib borilishi, mineral o'g'itlar samaradorligini 6-8 barobarga oshirish imkonini berdi.

Hozirda g'o'za maydonlarini oziqlantirish ishlari yakuniy pallaga kelgan bo'lib, kimyo korxonalari tomonidan respublika hududlariga bir kunda o'rtacha 130-135 vagon, ya'ni 10,0-11,0 ming tn azotli o'g'itlar ortib berilmoqda.

G'o'za maydonlarini agrotexnik muddatlarda azotli o'g'itlar bilan oziqlantirish uchun yetarli miqdorda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish quvvatlari va zaxirasi mavjud.

**«O'zkimyosanoat» AJ Matbuot xizmati**